

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Umurova Ruxshona Isomiddin qizi

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish hamda jamiyatda samarali muloqot qilish malakalarini oshirish to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutqiy kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari va texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liqligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, o'quvchi, nutqiy kompetensiya, zamonaviy-texnologiya, metod

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187- sonli qarori, 2019- yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy-texnologiya va metodikaga asoslangan modeli Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbining muvaffaqiyatli egallanishi nutq madaniyati va muloqot madaniyatini puxta o'zlashtirishsiz imkonsizdir. O'qituvchining kommunikativ madaniyati, uning nutqiy madaniyatiga asoslangan holda, butun ta'lim tizimining samaradorligi va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sir darajasini belgilaydi. Pedagogik faoliyat mazmuni o'qituvchiga bir qator maxsus talablarni qo'yadi. U o'z kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirish uchun shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, kasbiy jihatdan ahamiyatli va zarur bo'lgan sifatlarni egallashga intilishi lozim. Hozirgi kunda erkin va madaniy nutqqa egalik masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o'z kasbining asosiy vositasi sifatida so'zdan foydalanadigan mutaxassislar, xususan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu muhim ahamiyatga ega.

Chunki pedagog nutqi nafaqat kasbiy faoliyatning asosiy vositasi, balki didaktik namuna, o'quvchilarning ongli yoki ongsiz ravishda o'zlashtiradigan me'yoriy ifoda shakli

hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish ularning kelajakdagi ta'lim jarayonlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishi va ijtimoiy moslashuvi uchun zaruriy omil hisoblanadi.

Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va metodikalar asosida ishlab chiqilgan modellar samarali natijalar berishi mumkin. Chunki o'quvchilarning lingvistik imkoniyatlari va muloqot qobiliyatlari o'qituvchi nutq madaniyatining sifatiga, uning pedagogik kommunikatsiya jarayonida to'g'ri yondashuv qo'llay olishiga bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda o'qituvchining kommunikativ madaniyatini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish hamda lingvistik ta'lim jarayonlarini tizimli tashkil etish kabi omillar asosiy mezon sifatida qaralishi lozim. O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir qilish darajasi bevosita uning nutqiy namunalari orqali uzatilishi sababli, ta'lim jarayonida interfaol metodlar, texnologik innovatsiyalar va lingvodidaktik yondashuvlarning uyg'unligi asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, boshlang'ich sinf o'qituvchisining nutqiy madaniyati va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalari bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Ushbu jarayon esa zamonaviy texnologiyalar, kommunikativ metodlar va pedagogik modellastirish tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogdan og'zaki va yozma shaklda samarali muloqot qilish talab etiladi. O'qituvchining kasbiy va ijtimoiy muloqot qobiliyatlari uning professional faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, pedagog o'z so'zi orqali o'quvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantiradi.

Ushbu jarayonda o'qituvchining nutqiy ifodasi nafaqat ta'limiy vosita, balki o'quvchilarga o'rnak bo'luvchi lingvistik model sifatida ham namoyon bo'ladi. Bugungi kunda milliy til madaniyatining umumiy darajasi pasayishi, jumladan, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, publitsistika va kundalik muloqotdagi lingvistik ifoda darajasining susayishi natijasida, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi yangi pedagogik yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodikalardan foydalanish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy-texnologiya va metodikaga asoslangan modeli Hozirgi vaqtda nutqiy ijodkorlikni shakllantirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: erkin, mantiqiy to'g'ri, mavzuga muvofiq va samarali og'zaki bayon qilishni o'rgatish, shuningdek, turli uslub va janrlarga mos yozma matnlar yaratish ko'nikmalarini shakllantirish. Ushbu mahoratni egallash boshlang'ich ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Davra suhbat” metodi: “Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va

ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Davra stolining tuzilmasi: Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga soladi va belgilar qo'yadi. Belgilar: 1-ta'lim oluvchilar 2-aylana stol solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan.

"Davra suhbat" metodining tuzilmasi

"Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Suhbatni o'tkazish shartlari bilan tanishtirish: Konvertlar va "Javoblar varaqalari"ni tarqatish; Konvertlarga savollar yozish; Savollarga javob yozish; Baholash va tahlil qilish.
- Konvertni yonidagi o'quvchiga uzatishlarga savollar yozish.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertidagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. .Ernazarov G'. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi"- Toshkent: "Ilm ziyo"- 2013.
2. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b

3. M. O. Ochilova, N. A. Rahimova BDU Pedagogika kafedrası o'qituvchilari Talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirish. Web of Scholars: Ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali (MRJ) Jild: 02 Nashr: 01 | 2023 ISSN: (2751-7543)

4. K.Turaev Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. –T. 2020